

“Yorqin payshanba” aksiyasi

2023 26 Aprel

2023-yil 27-apreldan Uzbekistan Airways yangi “**Yorqin payshanba**” deb nomlangan aksiya joriy etilganini e’lon qiladi! Aksiya doirasida har oy davomida aviakompaniya tasodifiy yo’nalishlarni tanlab chegirmalar taqdim etadi.

Ushbu aksiya doirasida faqat 27-aprel kuni Uzbekistan Airways quyidagi yo’nalishlar bo’yicha tarifdan 20% chegirma taqdim etadi:

- Toshkent - **London** - Toshkent
- Toshkent - **Frankfurt-Mayn** - Toshkent

Shuningdek, “Sharqiy” xabdan uchuvchi barcha reyslar uchun:

- Namangan - **Moskva** - Namangan
- Namangan - **Orenburg** - Namangan
- Namangan - **Sochi** - Namangan
- Namangan - **Perm** - Namangan
- Namangan - **Samara** - Namangan
- Namangan - **Yekaterinburg** - Namangan
- Namangan - **Krasnoyarsk** - Namangan
- Namangan - **Ufa** - Namangan
- Namangan - **Irkutsk** - Namangan
- Namangan - **Nijnevartovsk** - Namangan

- Namangan – **Omsk** – Namangan

“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.

Uzbekistan Airways bilan qulay sayohat qilish imkoniyatini qo‘ldan boy bermang!

Uzbekistan Airways “Yorqin payshanba” aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 27-aprel soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Yo‘nalishlar: Toshkentga/dan London, Frankfurt va qaytib kelishga, shuningdek, Namangandan Moskva, Orenburg, Sochi, Perm, Samara, Yekaterinburg, Krasnoyarsk, Ufa, Irkutsk, Nijnevartovsk, Omskka va u yerdan qaytib kelishga;
3. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
 - Chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
4. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig‘imlarga nisbatan qo‘llanilmaydi, bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi. Qisman foydalanilgan aviachipta pulini chegirma tugagandan keying kunda qaytarmoqchi bo‘lgan yo‘lovchi chegirma amal qilgan kunda sotib olgan miqdorda qaytarib oladi;
5. Chegirma bilan chiqarilgan to‘liq foydalanilmagan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirmalar qo‘llanilmagan holda to‘liq tarif darajasiga qo‘shilishi kerak;
6. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 27.04.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo‘llanilmaydi;

7. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;
8. Aviachiptalarni chegirma bilan aviakompaniyaning veb-saytida, "Uzbekistan airways sales" filiali va uning agentlarida, shuningdek, xorijdagi vakolatxonalarimizda xarid qilish mumkin. BSP agentlari bundan mustasno;
9. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
10. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi, bolalarnikidan tashqari (saytda 3% chegirma qo'llanilmaydi);
11. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentga/dan London, Frankfurt va qaytib kelishga, shuningdek, Namangandan Moskva, Orenburg, Sochi, Perm, Samara, Yekaterinburg, Krasnoyarsk, Ufa, Irkutsk, Nijnevartovsk, Omsk va ortga qaytuvchi reyslar uchun taqdim etiladi. Chegirma CodeShare reyslarida va tijorat shartnomalari bo'yicha e'lon qilingan tariflar uchun qo'llanilmaydi.